Bugungi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoat korxonalari bir tizimli integratsiyalashgan usullarini targ'ib qilib, qo'shimcha qiymat zanjirini tashkil qilgan holda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarib, ularni jahon bozorlariga yetkazib berilishini taminlab kelishmoqda. Bu usul klasterlashtirish usuli bo'lib, unda bir yo'nalishdagi boshqa korxonalarning faoliyatlari birlashishlari natijasida ishlab chiqilgan raqobatbardosh mahsulotlar ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berilmoqda. Korxonalarni klasterlashtirish mahsulotlarning raqobatbardosh ko'rsatkichlarini rivojlanishi bilan birgalikda tayyor mahsulotlarni tashqi faoliyat samaradorligi va uning diversifikatsiya ko'rsatkichlariga tasir qiladi. Rivojlangan davlatlarda innovatsion iqtisodiyotni boshqarishda klasterlardan foydalanish bo'yicha tajribalar to'plangan.

Sanoat tarmoqlarini klasterlashtirish bilan bog'liq harakatlar Avstriya, Xitoy, AQSH, Daniya, Fransiya, Italiya, Finlyandiya, Hindiston va boshqa mamlakatlarda rivojlangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi 15-20-yil mobaynida klasterlarni tashkil etish borasida katta ishlar amalga oshirilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

To'qimachilik klasterlarning iqtisodiy va eksport salohiyatini oshirishda olimlarning bir qancha takliflari ilgari surilgan. Mahalliy olimlarimizdan A.Soliyev va Z.Xakimovlar maqolalarida "Klaster nazariyasi va uni amaliyotda qo'llayotgan mamlakatlar tajribasidan Namangan viloyatida foydalanish imkoniyatlari" keltirilgan [1]. Ushbu olimlarning aynan ushbu hududni tanlanishiga viloyatning tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi yuqoriligidadir. A.Sh.Bekmurodov va Yang Song Be "O'zbekiston to'qimachilik sanoati strategiyasini rivojlantirishda klaster yondashuvi" [2] deb nomlangan monografiyasida klaster mohiyati va ularning raqobatbardoshligi, xorijiy mamlakatlar, kompaniyalar va mahsulotlar kesimida erishilgan natijalar misollar orqali ko'rsatib berilgan.

Amerika olimlari M.Porter "Raqobat uslunligi nazariyasi" [3], M.Enrayt, S.Rezenfeld, P.Maskell va M.Lorensenlar "mintaqaviy klasterlar konsepsiyasi" [4], A.Marshall "Sanoat hududlar nazariyasi" [5], P.Bekatin

“Italyan sanoat ogruglari nazariyalari”ni ilgari surishgan [6]. T.Kononing fikriga ko‘ra, korxonani ishlab chiqargan mahsulot turi faqat bir turdagi mahsulot bilan cheklangan bo‘lsa, bunday korxona boshqa turdagi mahsulot ishlab chiqarishdan cheklanganligi sababli, yagona ixtisoslashgan korxona deb tarif bergan. Aksincha, agar har xil turdagi mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lsa, bunday korxona diversifikatsiyalashgan korxona hisoblanadi. Bozor munosabatlari shakllanishiga qarab korxona diversifikatsiyalanishiga yoki bir turdagi mahsulot ishlab chiqarish bilan cheklanadi [7]. R.Pits va X.Xopkins tarifida biroz boshqacha jihatga amal qilinib, diversifikatsiyani bir vaqtning o‘zida bir nechta biznes turlarini yuritish sifatida belgilaydilar.[8] Yuqorida qayd etilgan xorij olimlarning nazariyalarida klasterlar bu raqobat ustunligini amalga oshirishda yuqori samara hisoblanib ta’lim, fan, texnologik, iqtisodiy va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyati bilan uyg‘unlashgan tizimi ekanligi takidlanadi.

Klasterlar bilan bog‘liq jarayonlar va hududlarni rivojlantirishda Rossiya olimlari Yu.S.Artomonova, B.B.Xurustalev [9] tomonidan o‘rganilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Izlanish davomida iqtisodiy, statistik, qiyosiy tahlil, xronologik kuzatish usullardan foydalanildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning mavzu dorasida chop etilgan ilmiy ishlaridan ham foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon savdo tashkiloti malumotlariga tayanib, 2021-yilda to‘qimachilik mahsulotlarining umumiy eksport hajmi 548,8 milliard dollarni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan o‘sish surati 21,9% tashkil qildi [10]. Unda yetakchi o‘rinlarni Xitoy, Yevropa ittifoqi, Hindiston, Turkiya, Vetnam, AQSH va boshqa mamalakatlar egalladi. Ushbu mamlakatlarning aksariyatida klasterlar faoliyat yuritayotgan bo‘lib, mamlakat iqtisodiyoti va tashqi iqtisodiy faoliyatining o‘sish dinamikasiga ham ijobiy tasir ko‘rsatib kelmoqda. Bu borada aksariyat mamlakatlarda boshqaruvning klasterga asoslangan to‘qimachilik tarmoq xo‘jaligining yangi tizimi amalga oshirilib kelinayotganligini taqozo etadi. Bu borada ularda ishlab chiqilgan tayyor mahsulotlar raqobatbardoshligi bilan birga qo‘shimcha qiymat mahsulotlarni vujudga kelishiga olib kelmoqda hamda YAIM aholi jon boshiga o‘sishiga erishmoqda.

Bu borada mamlakatimizda tarmoqlarida eksport hajmi va geografiyasini kengaytirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli Farmonining III va VII ustuvor yo‘nalishlarida belgilab berilgan to‘qimachilik sanaoti rivojlantirishni takomillashtirish, ishlab chiqarish hajmini yagona zanjir orqali 2 baravarga ko‘paytirish, xom ashyo mahsulotlar eksportini qisqartirish va tayyor mahsulotlar ulushida milliy va xorijiy brendlarni jalb qilish orqali 2026-yilda eksport hajmini 5 mlrd dollarga yetkazish [11].

1-jadval: Xorijiy davlatlarda sanoat korxonalarini klasterlashtirish bilan bog‘liq jarayonlar [12]

| № | Mamlakatlar | Klasterlar tashkil etilgan tarmoqlar |
|---|---|---|
| 1. | AQSh | Aerokosmik ishlab chiqarish.<br>Aviasozlik.<br>Energetika.<br>Avtomobilsozlik<br>Elektromuhandislik.<br>Biotexnologiya |
| 2. | Finlyandiya | Elektromuhandislik.<br>Agrosanoat.<br>Qurilish.<br>Darahtni qayta ishlash. |
| 3. | Daniya | Farmatsevtika.<br>Sog‘liqni saqlash.<br>Energetika. |
| 4. | Buyuk Britaniya | Biotexnologiya.<br>Kimyo vositalari. |
| 5. | Germaniya | Avtomobilsozlik.<br>Biotexnologiya.<br>Neftgaz kompleksi.<br>Energetika. |

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

| | | |
|---|---|---|
| 6. | Xitoy | Mikroelektronika.<br>Aerokosmik ishlab chiqarish.<br>Biotexnologiya.<br>Avtomobilsozlik.<br>Energetika. |
| 7. | Kanada | Biotexnologiya.<br>Telekommunikatsiya.<br>Sog'liqni saqlash. |
| 8. | Yaponiya | Robotsozlik.<br>Mikroelektronika.<br>Energetika.<br>Avtomobilsozlik. |

Jadvalda turli xil sohalarni klasterlash tizimini kuzatishimiz mumkin. AQSHda 6 ta yo'nalishda, Finlyandiyada 4 ta, Daniyada 3 ta, Buyuk Britaniyada 2 ta, Germaniyada 4 ta, Xitoyda 5 ta, Kanadada 3 ta, Yaponiyada 4 ta soha yo'nalishlarda klasterlarga asoslangan tizim faoliyat yuritib keladi. Dunyo tajribasiga qaralsa, texnika, sog'liqni saqlash, avtomobil sohasida yetuk bo'lgan mamlakatlar klaster tizimida faoliyat yuritib kelishiga olib kelmoqda. Endi esa to'qimachilik sanoati ishlab chiqarish va eksport salohiyati borasida rivojlangan mamlakatlar tajribasiga to'xtalsak.

Italiyada klasterlar tumanlarini rivojlantirishning muvaffaqiyatli tajribasiga asoslanadi. Italiyada jami 200 ta sanoat zonalari mavjud bo'lib, ular 60 ming korxonalarni birlashtirilishi natijasida 600 ming ish o'rinlarini tashkil qilgan. Sanoat zonalarini kooperatsiyalashtirish natijasida 1 milliondan ortiq kichik va o'rta korxonalar faoliyat yuritib, bandlik darajasi 4-6 million kishini tashkil etadi [13]. Italiya iqtisodiyotini rivojlanishida to'qimachilik sanoatining ulushi muhim hisoblanadi. Italiyada yuqori samaradorlikka ixtisoslashgan to'qimachilik uskunalarini eksport qilish hajmi bo'yicha jahonda 5 talikka kiruvchi mamlakatlar qatoridan joy olgan. Italiya to'qimachilik sanoatining muvaffaqiyatlaridan biri dunyoga mashhur brendlar sanaladi. Jahon 100 brendlarning 26 tasi Italiya hissasiga to'g'ri keladi. Italiyada Biella va Prato to'qimachilik sanoat okruglarida to'qimachilik klasterlari faoliyat ko'rsatadi. Bular to'qimachilik uskunalarni ishlab chiqarish va kiyim-kechak mahsulotlarga ixtisoslashgan klasterlar faoliyati yo'lga qo'yilgan.




1-rasm: Italiya to'qimachilik sanoatining tuzilishi[1]

Italiya to'qimachilik sanoat klasterlari uch bosqichdan tashkil topgan klaster shaklidagi boshqaruvga ega (1-rasm). Bu yerda ko'plab kichik firmalar tomonidan yetakchi bo'lgan firmalarga xom ashyo va boshqa mahsulotlarni o'z vaqtida yetkazib berilishini taminlab kelib, yetkazib berilganlik uchun ularga haq to'lanadi. Shundan so'ng, keyingi boqsqichda xom ashyo mahsulotlar qayta ishlash natijasida tayyor mahsulot shakliga keltiriladi. Tayyor mahsulotlar dizayni jahon talablaridan kelib chiqqan holda sifat nazoratidan o'tkazilib, yirik brend nomi ostida jahon bozorlarga eksport qilinadi. Italiya davlatining asosiy vazifalardan biri sohaga yordam berishga qaratilgan boshqaruvni amalga oshirishdir. Bular eksport tizimidagi xorijiy davlatlar bilan bojxona bojlarini kamaytirish, qulay investitsion muhit yaratish, kichik biznes vakillariga konsalting xizmatlar ko'rsatish kabi ishlarni amalga oshiradi.

Hindistonda mamlakat klasterlari eksportining 60 foizdan ko'prog'ini taminlaydi va bazi yirik klasterlar Hindistonda to'qimachilik, va charm mahsulotlarining 90 foizini ishlab chiqaradi. Hindiston yuqori texnologiyali sanoat va xizmatlarni rivojlantirishda klasterlarning eksport imkoniyatlarini rag'batlantirish borasidagi yondashuvlari samaralidir. Hindiston dunyodagi yirik to'qimachilik uskunalari va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi mam-

1 Muallif tomonidan tuzilgan.

lakatlardan sanaladi. Hindiston paxta yetishtirish bo‘yicha jahonda 23 foiz ulushiga ega. Mamlakat to‘qimachilik sanoati ustunliklaridan biri chuqur qayta ishlashda qo‘shimcha qiymat zanjirining mavjudligi va ish kuchi arzonligidir. Hindiston to‘qimachilik sanoatining asosiy yondashuvi tikuv-trikotaj tarmog‘iga qaratilgan. To‘qimachilik klasterlar nazorati Hindiston yengil sanoat vazirligi tomonidan qo‘llab-quvvatlanib kelinadi.

AQSHda to‘qimachilik sohasida mehnat qilayotganlar soni 501 mingdan ortiq kishini tashkil qiladi. To‘qimachilik mahsulotlarini eksport qilish bo‘yicha jahonda uchinchi davlat hisoblanadi. 2022-yilda to‘qimachilik va tayyor mahsulotlar eksporti 65,8 milliard dollarni tashkil qildi [14]. Amerikada boshqa tarmoqlar qatori to‘qimachilik sanoati rivojlanishida klasterlarning o‘z o‘rni mavjud. Shulardan biri, “Nyu-York shaxridagi kiyim klasteri” sanaladi. Klaster mamlakat kiyim-kechak mahsulotlarining 95 foizini ishlab chiqaradi. Klaster talim va ishlab chiqarish holatlaridagi moda-dizayn jihatlarga qaratilgan. Klaster Nyu-York shaxri hududidagi 900 dan ortiq kompaniyalarni o‘zida mujassamlashtirgan.

Amerikaning Oregon shtatida sport mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan to‘qimachilik klasteri faoliyat yuritadi. Ushbu klaster tayyor mahsulotlar bo‘lmish kiyim-kechak, charm-poyabzal hamda sport mahsulotlarining dizayn va texnologiyasiga qaratilgan bo‘lib, 800 ta kompaniyalarni o‘zida birlashtirgan. 1990-yillarda ushbu klasterda “Adidas”, “Columbia Sportwear”, “Merrill”, “Icebreaker”, “Keen&Showers”, “Montbell” va “Mizuno” kabi kompaniyalar o‘zlarining ofis va shtab kvartiralarini ochishga muvaffaq bo‘lishgan. Klasterning asosiy tamoyili qo‘shimcha qiymat zanjirini boshqarish, marketing va yangi texnologik ishlanmalar orqali mahsulot assortimenti va raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini oshirish hisoblanadi.

Xitoy dunyodagi eng yirik to‘qimachilik va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi davlatlar qatoridan joy olgan. 1990-yillarda hukumat to‘qimachilik sanoatidagi samarasiz davlat korxonalarini qayta qurish va eskirgan uskunalarni yangilash siyosatini olib borish bilan birgalikda, korxonalarni innovatsiya faoliyatiga jalb qilish, tayyor mahsulotlar ulushini ko‘paytirish orqali brendlarni rivojlantirish bo‘yicha islohotlar o‘tkazdi. Yuqori iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishilishida Xitoy to‘qimachilik sohasidagi muvaffaqiyatining asosiy sabablari sifatida arzon ishchi kuchining mavjudligi, yirik xom ashyo bazalariga egaligi, qulay investitsion muhit, kichik va o‘rta biznes korxonalariga imtiyoz va preferensiyalar berilishida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, shuningdek, eksport hajmini amalga oshirishda JSTga azo bo‘lishi bilan bog‘liq omillar hisoblanadi.



2-rasm: Bangladesh to‘qimachilik va tikuvchilik sanoati fabrikalarini ichki va tashqi faoliyatidagi imtiyozlari [16]

Sharqiy Osiyo mamlakatlari ham to‘qimachilik sohasida rivojlanish bo‘yicha o‘zlarining o‘ziga xos uslublari mavjud. Bu borada, Vetnamda kichik va o‘rta to‘qimachilik korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar jahon bozorlariga xaridorligi bilan tanilgan. Mamlakatda xom ashyo difitsitligi sababli ip-kalavaning 80 foizi, gazlamaning 90 foizi xorij mamlakatlaridan import qilinadi. Shunday bo‘lsa-da, soha strategiyasi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarib eksport qilishga qaratilgan. Malumotlarga ko‘ra, 2022-yilda Vetnam 45 milliard dollarlik tayyor mahsulotlar eksportini amalga oshirilgan [15]. Sanoatining ustun tomoni paxta va ish kuchi narxining barqarorligi bilan birga, mamlakat 2019-yil 14 yanvardagi “Tinch okean hamkorlik shartnomasi”ga azo bo‘lishi hisoblanadi. Shu sababli, Vetnam Kanada, Meksika, Yangi Zelandiya, Avstraliya kabi davlatlarga suv transporti orqali eksport hajmini oshirish imkonini berib transport xarajatlarni qisqartirish imkoniyatini beradi.

Bangladesh tajribasi tayyor mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha jahonda ikkinchi o'rinda turadi. Bangladesh to'qimachilik sanoatini rivojlanishida "Bangladesh Textile Mills Corporation" (BTMC) davlat tashkilotiga asos solinganligi va ko'plab to'qimachilik korxonalari azo bo'lganligi bilan bog'liq. Bangladesh paxta xom ashyo resurslariga ega emas.

Mamlakat to'qimachilik sanoatini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan tayyor mahsulotlarni eksport qilish hajmiga qaratilgan. Fabrikalarni iqtisodiy samaradorligini oshirishda "maxsus ishlab chiqarish-eksport zonalar" faoliyat ko'rsatadi. Umuman olganda, Bangladesh to'quv va tikuvchilik sanoatida amaldagi imtiyozlarni ichki va tashqi doiradagi omillarga ajratish mumkin.

Bangladesh tajribasi O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlarini barqaror ishlashida elektr-energiya taminoti bilan uzluksiz taminlash, YEI mamlakatlari bilan (GSP+) erkin savdo bitim talablaridan kelib chiqqan holda tayyor mahsulotlarga sertifikatlarini olishni amaliy yordam ko'rsatish hamda eksport qilishda bojxona bojlarni olib tashlash; kadrlar malakasini isloh qilish bunda ularning nazariy va amaliy bilim ko'nikmalarini shakllantirish soha oldidagi ustuvor vizifalarning yechimi sifatida taklif etiladi.

Turkiya yirik hajmdagi to'qimachilik va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi davlatlar qatoridan joy olgan. Mamlakat to'qimachilik sanoatining muvaffaqiyati bu ish kuchiga bo'lgan xarajatlarni pastligi, kadrlar malakasi, xom ashyoning arzonligi, liberallashtirilgan iqtisodiy muhit va eksportga qaratilagan siyosat hisoblanadi. 1940-1950-yillarda sanoatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq harakatlar xususiy sektorga qaratildi. Sektorni rivojlantirishda ishlab chiqarish solig'ining bekor qilinishi, to'qimachilik uskunalarga import bojlarini olib tashlanishi va "Turkiya sanoat taraqqiyot banki" tashkilotiga asos solinganligi kabi rag'batlantiruvchi usullar ishlab chiqildi. Mamlakat to'qimachilik sanoatidagi yirik kompaniyalarining aksariyati xoldinglarga birlashganligi sababli narxlarni past darajada ushlab turish imkonini beradi, natijada ishlab chiqilgan mahsulotlar global muhitida raqobatbardoshlikni yuzaga keltiradi. Turk fabrikalarining boshqaruv usuli ilg'or menejment tamoyillari asosida shakllantirilgan hamda yuqori texnologiyali uskunalar bilan taminlangan.

Turkiya to'qimachilik sanoatini eksport faoliyatini rivojlanish dasturi uch tayanchga asoslangan.




3-rasm: Turkiya to'qimachilik sanoatini eksport faoliyatini rivojlantirish dasturi[2]

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Malumki, innovatsion usulda paxtani chuqur qayta ishlash va qo'shimcha qiymat zanjirini yaratishda klasterlarga tayaniladi. Umuman olganda, paxta-to'qimachilik klasterlari uch bosqichli mexanizmdan tashkil topgan jarayon deb tarif berish mumkin. Bular fermer xo'jaliklari ishtirokidagi paxta yetishtirish jarayoni, paxta xomashyoni qayta ishlash zavodlari hamda to'qimachilik va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonalardir. Bugungi kunda fermerlar va klasterlar o'rtasida paxtani yetkazib berish va hisob-kitobida ziddiyatlar yuzaga kelishini oldini olishda fermerlar va klasterlar o'rtasida erkin bozor tamoyillari asosida fermerlar tomonidan yetishtirilgan paxta xom ashyoni jahon bozor narxidan kelib chiqib birjada hisob-kitobni amalga oshirishning yangi mexanizmi joriy etildi.

To'qimachilik sanoatini transformatsiya qilish va klasterlashtirish bilan bog'liq jarayonlarni tatbiq etilishi quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi.

2 Muallif tomonidan tayyorlangan.

*Birinchidan,* boshqaruvning yaxlit bir tizimda faoliyat olib borish mexanizmi shakllanadi. Bunda har bir zanjirning ishlab chiqarish jarayonlarida mahsulot unumdorligini oshishiga olib keladi. Shu bilan birga, tizimning har bir bosqichida vujudga kelishi mumkin boʻlgan turli xil iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning oldi olinadi.

*Ikkinchidan,* Ishlab chiqarishning intensiv usullariga oʻtiladi. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish natijasida yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqilib, ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlanmalar amaliyotga tatbiq etiladi.

*Uchinchidan,* ishlab chiqarish hajmi va eksport koʻrsatkichlari yaxshilanadi. Bunda, qoʻshimcha qiymatga ega boʻlgan mahsulotlar hajmi koʻpayib, tannarx xarajatlari qisqarib boradi. Natijada, ishlab chiqarish samaradorligi oshib, amaldagi toʻqimachilik korxonalardan uch-toʻrt barobar koʻp eksport qilish imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Bular tashqi bozorlarda sof raqobatni keltirib chiqaradi.

*Toʻrtinchidan,* Kadrlar salohiyatini transformatsiya qilish jarayonlari takomillashtiriladi. Bunda rotatsiya ishlari klasterning har bir tuzilmalarida amalga oshirilib, boshqaruv tizimi va xodimlarning bilim va koʻnikmalari hamda tajribalari shakllanib boradi.

*Beshinchidan,* Respublika sanoati taraqqiy topgan davlatlar qatoridan joy oladi. Shuningdek, Respublika hududlarining infrastrukturasi yaxshilanib, chekka hududlarda aholining bandlik koʻrsatkichlari hamda daromadlari oshib boradi.

15-20-yil ichida Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda klasterlashtirish ishlari faollashib bormoqda. Klaster tashabbuslarini tahlil qilish, ularning yuqori raqobatbardoshligi iqtisodiyotni boshqarishni alohida guruhlarning kuchli pozitsiyalariga tayanadi. Bu borada toʻqimachilik sanoatida erishilgan muvaffaqiyatlar va eksport saloxiyati tendensiyalari borasida Bangladesh, Vetnam, Turkiya, Xitoy kabi davlatlar tajribalarini oʻrganish va ushbu davlatlar tajribalarni mamlakatimiz qonunchiligiga mos kelishi va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holatda joriy etish muhimdir.

**Manba va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**


1. A.Soliyev va Z.Xakimovlar “Klaster nazariyasi va uni amaliyotda qoʻllayotgan mamlakatlar tajribasidan Namangan viloyatida foydalanish imkoniyatlari” “Biznez-ekspert”jurnali 2014-yil 1-son, 52-57-bet.
2. A.Sh.Bekmurodov va Yang Song Be “Oʻzbekiston toʻqimachilik sanoati strategiyasini rivojlantirishda klaster yondashuvi”. Monografiya, 2006-yil, 112 bet.
3. Портер М.Международная конкуренция. –М.: Международные отношения, 1993. С.51.
4. Enright, M (1996) “Regional Clustersand Economic Development: A.Research Agenda”, in Staber, U.,Schaefer, N. And Sharma, B, (Eds). “Business Networks: Prospects for Regional Development, Berlin”. Walter de Gruyter, p.190-213.
5. Маршалл А. Принципы экономической науки, I-III. Пер. с англ.- М.-Издательская группа “Прогресс”, 1993
6. П.Бегаттин- Becattini G. From Marshalls to the Italian “Industrial Districts”/ www.copetitivness.org
7. Коно Т. Стратегия и структура японских предприятий. –М.: Мысль, 1987.-214 с.
8. Новицкий Е.Г. Проблемы стратегического управления диверсифицированными корпорациями М. Буквица, 2001.
9. Кластерные политики и кластерные инициативы: теория, методология, практика. (Коллективная монография). Минобразования и науки РФ, Минэкономразвития РФ, Правительство Пензенской области. Пенза-2013.
10. www.shenglufashion.com/2022/12/02/world-textiles-and-clothing-trade-in-2021-a-statistical-review.
11. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi” sonli Farmoni.
12. Бурншаев К.Г.Развития инновационно-ориентированных кластерных структур. Дис.канд.экон.наук.-М., 2014. С.43-44.
13. Дмитриева, О.В.//Актуальный проблемы экономики и права: материалы IV международный научный практический конференция., Барановичи,26-27 апр.2012 г.-Барановичи: РИО БарГУ,2012.-С.71-74
14. The National Council of Textile Organizations is a unique association// http.ncto.org/facts-figures/us-textile-industry
15. https://dzen.ru/media/textilepro/tekstilnaia-industriia-vetnama-638dcdd5bfcbb6654cfa666f?&utm_referer=www.google.com. Текстильная индустрия Вьетнама.
16. Bangladesh toʻqimachilik va tikuvchilik sanoati fabrikalarini ichki va tashqi faoliyatidagi imtiyozlari.
17. Azlarova M. Impact of technology-supported marketing strategies on food security and provision: Evidence from Uzbekistan’s confectionery industry //Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2022. – С. 39-45.
18. Qizi A. M. M. Methodological Aspects of Using Marketing Strategies in Filling the Consumer Market with Food Products //Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN. – 2023. – Т. 2249. – №. 0892.
19. Azlarova M. (2023). Iqtisodiyotning globallashuv sharoitida ichki bozorni oziq-ovqat tovarlari bilan toʻldirishning nazariy asoslari. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(1), 292–300. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a45.
20. Azlarova M.M. Marketing strategies for saturating the country’s consumer market with food. // Актуальные научные исследования в современном мире. – Переяслав, 2021. – Вып. 5(73), ч. 10. 6-8-b. https://iscience.in.ua/arkhyv/2021.
21. Azlarova M.M. Assessment of tenders of development of the consumer goods market in Uzbekistan. International Journal of Scientific&Engineering Research Volume 12, Issue 3, March -2021 818, USA, GIF-0,98.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.